

**ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATINI FOSH ETISH
FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI**

Muxammadqulov Shohruhbek Erkin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrasi”

mustaqil tadqiqotchisi

sh.muhammatqulov@mail.ru

Tarixdan bizga ma’lumki, dunyo davlatchiligi tarixi o‘ziga xos, bir-biriga o‘xshamaydigan, turli davrlarda turlicha xususiyat kab etgan voqelikni o‘zida aks ettiradi. Kishilik tarixida insoniyatni eng ko‘p o‘ylantirgan, tashvishga solgan eng muhim masalalardan biri – bu shubhasiz davlat va jamiyat boshqaruvining takomili masalasidir. Eng qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar, siyosatshunoslar, jamiyatshunoslar va boshqa turli soha nazariyotchilari yechim izlagan muammo sifatida erkinlik va tenglik muammosi tilga olinadi. Bu boradagi yondashuv tarixning barcha davrlarida bir xil ekani fikrimizni tasdiqlaydi.

Oxir-oqibatda insoniyat o‘zi kashf qilgan va amaliyotda qo‘llagan boshqaruv usullari orasidan demokratiyani eng maqbuli sifatida e’tirof etdi. Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri, mashhur davlat arbobi Uinston Cherchill ta’biri bilan aytganda «Demkoratiya insoniyatning erkinlik bilan bog‘liq talab va istaklarini o‘zida to‘la jamlagan bo‘lmasada, insoniyat undan yaxshiroq boshqaruv usulini o‘ylab topganicha yo‘q». Siyosatchi demokratiyaning o‘zi ham islohotlarga muhtoj ekani, uning kamchiliklari va nuqsonlarini tan olish asnosida undan mukammal boshqaruv yaratilmaganligini ta’kidlagan.

Demokratik boshqaruv tamoyillariga ko‘ra, davlat asosan bir-biridan mustaqil bo‘lgan uch hokimiyatning tizimli faoliyatidan iboratdir. Rasman tan olinmagan biroq, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muhim ko‘prik vazifasini bajaruvchi ommaviy axborot voitalari esa to‘rtinchi hokimiyat maqomidadir. Davlat o‘zining

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

barqarorligi, tinchligi, taraqqiyoti va xavfsizligini ta'minlashda axborotning ta'sir imkoniyatlariga tayanadi. Ochiq axborot makonining mavjudligi muayyan davlatning to‘g‘ri taraqqiyot yo‘lidan borayotganligini tasdiqlovchi asosiy jihatlardan biridir.

Chorak asrdan ortiq vaqt mobaynida o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lidan odimlayotgan O‘zbekiston Respublikasi barcha yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi axborot sohasini rivojlantirishda ham muayyan natijalarga erishmoqda. Paragrafga qo‘yilgan vazifa davlatning axborot sohasidagi siyosatini tadqiq qilish, uning yangi istiqbolli yo‘nalishlarini o‘rganish va soha rivojiga oid yangi tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi eng muhim ijtimoiy munosabatlarni himoya qilar ekan, shaxs, uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Ayniqsa, hozirgi kunga kelib, Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida bu yanada o‘z dolzarbligini namoyon etmoqda. Ijtimoiy turmushda insonlar o‘zaro bir-birlari bilan muomala qilar ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o‘rnataladi. Ayrimlar sof, halol yo‘l bilan, o‘zgalar haqidan qo‘rqan holda bu munosabatni o‘rnatsa, ayrimlar insonlarning soddaligi, ishonuvchanligini suiiste’mol qiladi. Bunday toifa shaxslarni o‘z nomi bilan firibgar va tovlamachi deb aytishlari ham bejizga emas. Ta’kidlash joizki, respublikamizda sodir etilayotgan jami jinoyatlar orasida firibgarlik jinoyatlarining salmog‘i yildan yilga o‘sib borishi kuzatilmoqda.

Achinarlisi shundaki, shuncha voqealardan keyin ham firibgarlik jinoyati yoxud firibgar va yo tovlamachi qarmog‘iga ilinayotgan vatandoshlar soni kamayib qolayotgani yo‘q. Qolaversa, taraqqiyot yuksalgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari ham qayd etilmoqda. Axborot texnologiyalari, internet orqali amalga oshirilayotgan firibgarliklar ham ko‘p uchrayapti.

Tahlillarga ko‘ra, Dastavval, firibgarlik bilan bog‘liq statistika haqida. IIV Jinoyat-qidiruv bosh boshqarmasi taqdim etgan ma'lumotlarga ko‘ra, 2019 yil yanvar-iyul oyida respublika bo‘yicha 1954ta firibgarlik jinoyati ro‘yxatga olingan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo'lsa, 2020 yilning shu davrida bu raqam 3881tani tashkil etgan. 2019 yilda 1748 kishi qo'lga olinib, firibgarlik jinoyatini ochish 98,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda bu raqam 95,9 foizdan iborat bo'lmoqda.

Statistika ma'lumotlari bilan tanishar ekanmiz, firibgarlik jinoyatini sodir etish uslublari diqqatimizni tortdi. 2020 yil 7 oyi davomida sodir etilgan firibgarliklarning jami 2151tasi pul oldi-berdisi bilan bog'liq bo'lsa, 336 tasi chet elga ishga yuborishni va'da qilish mazmuniga ega, 331tasi o'qishga kiritishga doir aldovdir.

Jinoyatlarni kimlar sodir etmoqda, degan savolga ham statistika ma'lumotida javob berilgan. Unga binoan, 463tasi ayollar, 511tasi muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, 1277ta holatda ishlamaydiganlar firibgarlikka qo'l urgani qayd etilgan.

Firibgarlik jinoyatlarining kamaytirish masalasi HMQOlар oldida turgan eng muhim va ustuvor vazifalaridan bo'lib, mazkur vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlash ko'proq ogoh etuvchi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni hamda ularni amalga oshirishda qo'llanilayotganfiribgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqazo etadi. Firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi samaradorligini ta'minlash uchun eng avvalo mazkur turdag'i jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, har qanday voqeа, hodisa, jarayon yoki mayjudlikning mohiyatini o'rganish uning kelib chiqishi yoki sodir bo'lishiga turtki bergen sabablar, imkoniyat yaratgan shartsharoitlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi. Aksariyat huquqshunos olimlar huquqbazarlikni kasallikka, huquqbazar shaxsni bemorga qiyoslashadi va mazmunan ularni bir-biriga yaqin tushunchalar deb bilishadi. Darhaqiqat, tizimda jazo huquqbazar shaxsni jazolashga emas, balki axloqan tuzatishga xizmat qilishi lozim degan qarash mavjud.

Firibgarlikka oid jinoyat ishi materiallari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki aksariyat hollarda jabrlanuvchilarining individual xususiyatlari (o'ta

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ishonuvchanligi) mazkur jinoyatning sodir etilishiga imkon yaratgan. Firibgarlik jinoyatlarini sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar tahlil qilinganida, 71,4 foiz holatda jabrlanuvchilarining o‘ta shonuvchanligi, 16,3 foiz holatda jabrlanuvchilarining o‘z maqsadlariga noqonuniy yo‘llar bilan erishishga urinishlari, 6,9 foiz holatda jabrlanuvchilarining huquqiy bilimlari yetishmasligi mazkur jinoyatlarningsodir etilishiga sharoit yaratgan.

Asosiy sabab va sharoitlar deb jamiyat rivojlanishining har qanday bosqichida ham firibgarlikning ob’ektiv qonuniy hodisa sifatida mavjud bo‘lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi hodisa, voqeа va jarayonlar yig‘indisiga aytamiz. Bunday sabablarga misol qilib ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi, jamoat manfaati bilan shaxsiy manfaat o‘rtasidagi, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o‘rtasidagi va shunga o‘xshash jamiyat rivojlanishining ob’ektiv qonunlariga asosan har qanday jamiyatda, uning barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni salbiy tomonlarini keltirishimiz mumkin. Asosiy bo‘lmagan sabab va sharoitlar deb, jamiyat rivojlanishining ma’lum bir bosqichida paydo bo‘lgan, vaqtinchalik va o‘tkinchi xususiyatiga ega bo‘lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi voqeа, hodisa va jarayonlar yig‘indisiga aytamiz. Asosiy bo‘lmagan sabablarga misol qilib hozirgi vaqtda ishsizlik, yetishmovchilik, huquqiy madaniyatning pastligi, milliy valyutaning qadrsizlanishini, tashkiliyboshqaruв sohasidagi yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni keltirishimiz mumkin.

Axborot texnologiyalaridan foydalanim sodir etiladigan firibgarlik jinoyatini fosh etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatining sabablar o‘rganilganda bir qator uxshash holatlarni kuzatish mumkin. Bunda Xitoy tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, albatta qadimgi xitoy an’analari bilan bog’liqligini ko‘rishimiz mumkin. Xitoyda davlat sudi bilan bir qatorda oila boshlig‘ining oila a’zolari ustidan sud hokimiyati ham mavjud bo‘lgan. Uy egasi-oila boshlig‘i-oila otasi xotini, bolalari va o‘z hokimiyati ostidagi boshqa qarindoshlariga jazo berish sohasida uzoq vaqtgacha cheklanmagan huquqlarga ega bo‘lib kelgan. Manbalarning xabar berishicha, ota o‘z o‘g‘lini sodir etgan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

jinoyati uchun o'ldirishi yoki o'zini-o'zi o'ldirishga buyruq berishi mumkin edi. Otaning o'z o'g'lini o'ldirish huquqi miloddan avvalgi I asr o'rtalarida bekor qilingan, lekin uning o'z bolalarini sotish va ularga boshqa jazolar berish, jumladan, oiladan haydash huquqi saqlanib qolgan. Dastlabki tergov va sud odatda ayni bir shaxs tomonidan amalga oshirilgan. Bu - jinoyat jarayonida o'zboshimchaliklarga, suiste'molliklarga olib kelgan va ayblanuvchini juda og'ir ahvolga solib qo'ygan. Jinoyatlarni tergov qilish qadimgi vaqtlardayoq maxsus chinovnik (linshi)ga topshirib qo'yilgan edi. Tergov asosan shikoyat qilish yoki uezd yoxud okrug boshqarmasiga xabar berish bilan boshlangan. Xabar berish, ayniqsa o'g'rilik va odam o'ldirishga taalluqli xabar berish aniq bo'lishi talab qilingan, aks holda noto'g'ri xabar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Xabar berish

ADABIYOTLAR

1. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.05.2018 yildagi PQ-3723-son. <https://lex.uz/ru/docs/3735818>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007. - № 15. mod. 152; - 2008. - № 52. mod. 510; - 2011.- № 16. mod. 159; - 2014. - № 16. mod. 176; - 2017. - № 14. mod. 213, № 22. mod. 406, № 35. mod. 914.
3. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida [O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.04.2018 yildagi O'RQ476-son]
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. https://www.uzavtoyul.uz/ru/page/hujjatlari_malumotlari-milliy-bazasi.html
5. Кибальник А.ГОДА Современно международное уголовное право: понятия, задачи, принципы. - СПб., 2003. - С.188.
6. Иногамова-Хегай Л.В. Преступление по международному уголовному праву и его закрепление в национальном уголовном праве // Международное

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

и национальное уголовное законодательство: проблемы юридической техники: Матер. III Междунар. науч.-практика. конф. - М., 2004. - С.334.

7. Конвенция о борьбе с незаконным запретом воздушных судов 1970 года